



MILLIY O'QUV DASTURI VA YANGI DARSLIKLARNI ISHLAB CHIQUISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

To'raqulov Akbar Rustam o'g'li

DTPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası
o'qituvchisi

Jumayeva Sharifa Umarali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti boshlang'ich ta'lim 2-bosqich
talabasi

@mail:jumayevasharifa88@gmail.com

Telefon raqam:+998888792266

Annotasiya: Darslik – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri. Maqolada Milliy o'quv dasturining o'ziga xosligi va yangiliklari, ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: milliy o'quv dasturi, darslik, ko'nikma, kompetensiya, dastur, ta'lim, malaka talabi, o'zgarishlar.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo'yilgan. Xususan, boshlang'ich ta'limda o'qitishga alohida e'tibor qaralib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamon talablari asosida malakali kadr etib tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo'lmas muammolaridan biri sanaladi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur. Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz.

Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbhunar ta'limini davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-



qarori orqali O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini qayta shakllantirish va xalq ta'limini jahon andozalari darajasida tashkil etishga qaratilgan vazifalar keltirilgan. 2022-yil 11-mayda "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" prezident farmoni bilan tasdiqlandi.

Milliy o'quv dasturi – har bir sinf bosqichi yakunida o'quvchilardan kutiladigan natijalarni hamda bir sinfdan keyingi sinfga o'tishni va o'quvchi qanday natijalarni qo'lga kiritishi kerakligi va baholash jarayonini tushuntirishda yo'nalish beruvchi hujjatdir.

Milliy o'quv dasturida quyidagilar yetakchi o'rin tutadi:

- izchillik, uzviylik, uzluksizlik,
- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fan, texnika va ilg'or texnologiyalar rivojining istiqbollari, xalqaro ta'lim standartlari darajasining mavjud holatini inobatga olish asosida, ta'lim mazmunini jahon ta'lim standartlariga moslashtirish;
- ishlab chiqarish, fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash.

2020 yilda yaratilishi boshlangan milliy o'quv dasturlarida XXI asr ehtiyojlaridan kelib chiqib o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikmalar belgilangan.

Dastur tarkibi 6 ta qismdan iborat: umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; umumta'lim fanlarining konsepsiyalari; umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasi; umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari; umumta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi; Baholash tizimi. Bu komponentlarning atiga 3 tasigina eski Davlat ta'lim standartlari DTSda mavjud bo'lgan. Yangilanayotgan Milliy dasturda esa ular mukammallashtirilib, xalqaro standartlarga moslashtirilgan holda joriy etilmoqda. Respublika ta'lim markazdan olingan malumotlarga qaraydigan bo'lsak, Milliy o'quv dasturi 22 fan doirasida har bir fanga alohida dastur ishlab chiqish rejalashtirilgan. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun 246 nafar ekspert, shu jumladan, maktab o'qituvchilari, metodistlar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda UNICEF va USAID tashkilotlaridan xalqaro ekspertlar jalb qilingan.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari



hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagicha:

Bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish
Ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish. Malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish.

Kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Ushbu malaka talablarini o'zida mujassamlashtirgan har qanday o'quvchi kelajakda o'z o'rnini topadi va dunyo standartlariga labbay deb javob bera oladi.

Yangilanayotgan darsliklarimizdagi muhim o'zgarishlardan:

– Ona tili va o'qish savodxonligi fani kiritildi (amaldagi ona tili va o'qish fanlarining soatlari hajmini saqlagan holda);

– tabiatdagi jarayonlarni sodda va qiziqarli tushuntirish va o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida yangi "Tabiiy fan" dasturi yetakchi xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqildi;

– matematika fanini sodda va qiziqarli tilda tushuntirish maqsadi fanning dasturi to'liq qayta ko'rib chiqildi;

– o'quvchilarni vatanparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari asosida mediasavodxon va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, maqsadga intiluvchan fuqaro qilib tarbiyalash maqsadida "Tarbiya" fani joriy qilindi;

Ilg'or fikrlaydigan, qat'iyatli, o'z maqsadi sari harakat qiladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammoni ijobiy yechadigan shaxslar jamiyat taraqqiyoti uchun kerak. Bunday shaxslar iqtisodiyotni rivojlantira oladi, jamiyatni boshqara oladi, hayotimizni o'zgartira oladi. Milliy o'quv dasturida XXI asr ko'nikmalarini singdirish orqali shunday shaxslarni tarbiyalashga harakat qilinmoqda.

Bugungi kunda ta'limning eng asosiy tayanch bo'g'ini hisoblanuvchi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilayotgani va "Milliy o'quv dasturi" deb nomlanishining o'zi bizga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga o'zbek



tilini intensiv o'rgatishni ta'minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

O'quv dasturi ta'lim qaysi yo'nalishda ketishini belgilab beradigan, muayyan fan mazmunini ta'lim bosqichlari, umumta'lim sinflar kesimida uzviylik va uzluksizlikda taqsimlangan tarzda yoritilishini belgilab beradigan me'yoriy hujjat sanaladi. Shundan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini hisoblanuvchi ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tili fani bo'yicha tuziladigan o'quv dasturi mazmun-mohiyati bilan o'zidan avvalgi maktabgacha ta'limning davomi bo'lishi va ayni vaqtda o'zidan keyingi ta'lim bosqichlari uchun tayanch bo'lishi kerak. Bugungi kungacha o'zbek tili fanidan tuzilgan o'quv dasturlarida ta'limning kommunikativ-nutqiy yo'nalishiga mos ravishda kompetensiyaviy yondashuv asosida yildan yilga takomillashtirib kelindi. Ta'lim bosqichlari uchun mavzularni taqsimlashda takrorlar, qaytariqlar bo'lmasligiga, bilimlarning osondan murakkabga qarab qanday o'stirib borishga jiddiy e'tibor qaratildi. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida o'tkazilgan muhim islohotlar, xususan, bu maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'limning birlamchi bo'g'iniga aylantirilgani va bolalarga ta'lim berishni bog'cha yoshidan boshlab yo'lga qo'yilgani, albatta, o'quv dasturlarini yana qayta ko'rib chiqishni va tubdan yangilashni taqozo etadi. Ta'limni bolalarga kichik yoshidan boshlash juda katta samara beradi va buni buyuk ajdodlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu nihoyatda to'g'ri qaror tufayli bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tillarni ilk bosqichdan o'qitish boshlab yuborildi, rus guruhlarida o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha maxsus "Ilk qadam" dasturi ham tuzildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlashtirish to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqarotadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori.



3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rtamaxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.

